

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.B.09.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

YULDOSHEV XOJIAKBAR TOSHPO‘LATOVICH

**O‘ZBEKISTONNING TURLI TIPDAGI SUV HAVZALARIDAGI
BALIQLAR ORGANIZMINING MORFOFIZIOLOGIK
XUSUSIYATLARIGA BIOEKOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI**

**03.00.06 – Zoologiya,
03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi**

**Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Yuldoshev Xojiakbar Toshpo‘latovich

О‘zbekistonning turli tipdagi suv havzalaridagi baliqlar organizmining morfofiziologik xususiyatlariga bioekologik omillarning ta’siri 3

Юлдошев Хожиакбар Тошпулотович

Влияние биоэкологических факторов на морфофизиологические характеристики организма рыб в водоёмах различных типов Узбекистана... 29

Yuldoshev Khojiakbar Toshpulatovich

The influence of bioecological factors on the morphophysiological characteristics of fish organisms in various types of reservoirs of Uzbekistan 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.B.09.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

YULDOSHEV XOJIAKBAR TOSHPO‘LATOVICH

**O‘ZBEKISTONNING TURLI TIPDAGI SUV HAVZALARIDAGI
BALIQLAR ORGANIZMINING MORFOFIZIOLOGIK
XUSUSIYATLARIGA BIOEKOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI**

**03.00.06 – Zoologiya,
03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi**

**Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.DSc/B249 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar:

Yunusov Xudaynazar Beknazarovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yatusevich Anton Ivanovich
veterinariya fanlari doktori., professor, akademik

Rasmiy opponentlar:

Kuzmetov Adulaxmet Raimberdievich
biologiya fanlari doktori, professor

Kuchkarova Lyubov Salijanovna
biologiya fanlari doktori, professor

Pazilov Abduvaeit Pozilovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Zoologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.09.10 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil "10" sentabr kuni soat 1400 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi majlislar zali. Tel.: (+99866) 240-38-47, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: www.samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (89 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 240-38-47.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «26» avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil «26» avgust № 1 raqamli reyestr bayonnomasi)



T.F.Rajabov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi, b.f.d.

A.N.Xujanov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
b.f.d. (PhD), dotsent

A.R.Jabborov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashda yuqori maxsuldorlik ko'rsatgichlariga ega bo'lgan baliq turlarini intensiv usulida yetishtirish, ulardan sifatli chavoqlar olish hajmini ko'paytirish, baliqchilikdagi asosiy vazifalardan biri sifatida foydalanilmoqda. Baliqchilikni intensiv rivojlantirish zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion texnologiyalarga asoslangan yuqori ishlab chiqarish darajasiga erishishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, baliqlar organizmidagi moslashuv mexanizmlarini aniqlash, ularning mahsuldorlik ko'rsatgichlarini prognoz qilish, baliqlar hayotining davomiyligini va reproduktiv ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yuqori samaradorlikka ega intensiv usulda baliqlarni yetishtirish, viloyatlarda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish, baliqchilik xo'jaliklariga birlashtirilgan suv havza maydonlaridan ilmiy yondashuv asosida samarali foydalanish hamda baliq yetishtirishda resurs tejamkor texnologiyalar va innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash va chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda bu borada, baliqchilik sanoatida naslli ona baliq va baliq uvildirig'i, yopiq suv aylanma tizimida baliq yetishtirishni intensiv usullaridan foydalanish orqali, inkubatsiya sexlari va reproduktorlarni tashkil etish, hovuz baliqchiligi sharoitida sanoat miqyosida super intensiv usulda baliqlarni yetishtirish va ko'paytirishning intensiv usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamalakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari barqarorligini ta'minlashda tez moslashuvchan baliq turlarining biologik xususiyatlarini ilmiy asoslash, ozuqa bazasini shakllantirish, baliqlarni sun'iy suv havzalarida yetishtirish va ota-ona baliqlar to'dasini shakllantirish, baliq chavoqlari ishlab chiqarish hamda tabiiy suv havzalari va sun'iy ko'llardan samarali foydalanish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "...suv zaxiralarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish", "chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 hissa oshirish" shuningdek, "eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni yetishtirish va eksport salohiyatini oshirish" bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Ushbu masalalar yechimini topishda mahalliy turlarning yuqori minerallashtirilgan, kam oqimli va kuchli antropogen omil ta'siri ostida qolgan baliq populyatsiyalarining o'zgargan sharoitlarga moslashishining fiziologik-biokimyoviy va morfologik mexanizmlari to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlar olish qaratilgan tadqiqotlar alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi "Baliqchilik sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №3657-son qarori, 2022-yil 13-yanvardagi

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

“Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risda”gi PQ-83-son qarori shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-oktyabrdagi 845-son “Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi hamda, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlashda va amaliyotga tadbiq etishda ushbu dissertatsiya tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Ayni vaqtda baliqlar morfologik va fiziologik holatiga suvning gidrokimyoviy xususiyatlarining ta‘siri bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Voronej Muhandislik va Texnologiya Universiteti (Rossiya), Castilla y León, (Ispaniya), Yevropa va Qo‘shma Shtatlar, Nazarbon Universiteti (Pokiston), Misr, Eron, Ispaniya (tadqiqotlar jamoalari) Tebessüm bilan Sirom: plant-extracts tadqiqotlari (Norvegiya), Veterinariya Institutida, Chuchuk suv va dengiz baliqlarida uchraydigan kasalliklar baliqlarning morfologik va fiziologik holatiga shuningdek suvning gidrokimyoviy xususiyatlari bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha Rossiya Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti va Sankt-Peterburg okeanarium ilmiy tadqiqot institutlarida (Rossiya) ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Baliqlarning morfologik va fiziologik holatiga atrof-muhitning tasiri, tananing fiziologik holatini doimo va to‘g‘ri aks ettirish, normadan og‘ishlarning tabiati borasida jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida, quyidagi ilmiy natijalar olingan: jumladan formalin va boshqa biologik moddalarning xavfsiz alternativlari baliqlarning morfologik va fiziologik holatiga ta‘siri aniqlanilgan (Voronej Muhandislik va Texnologiyalar Universiteti (Rossiya)), Probiotik *Pseudomonas fluorescens* LE89 va LE141 shtammlari qo‘llanilganda, *in vitro*: *S. parasitica* o‘rishini to‘xtatilgani va *in vivo*: rangli baliqda (*Oncorhynchus mykiss*) infeksiyaning rivojlanish darajasi aniqlangan (Castilla y León (Ispaniya)), vodorod peroksidi va borat kislotasi (*boric acid*) tasir etish natijasida, Fetusli salar (*Salmo salar*) uvildiriqlarida sezilarli darajada rivojlanish kuzatilgan, malaxit ko‘king o‘rniga ekologik xavfsiz Perox–Aid® kabi FDA preparatlar qo‘llanilgan hamda gematologik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan, karp baliqlarida gematologik o‘zgarishlari bo‘yicha qizil qon hujayralari, hujayra miqdori, oq qon hujayralari ko‘rsatkichlardagi sezilarli o‘zgarishlar kuzatilib, bu turli baliqlar immun javob reyaksiyasining zaiflashganligi asoslangan (Nazarbon Universiteti (Pokiston), *Syzygium aromaticum* (karamfil) va *Punica granatum* (anor po‘sti) ekstraktlarining

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi

<https://www.elsevier.com> + <https://scholar.google.com/> + <https://medcraveonline.com/> + <https://iopscience.iop.org/> + <https://www.vetinst.no/> + <https://www.researchgate.net/> + <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/> + <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/> + <https://onlinelibrary.wiley.com/> + <https://iopscience.iop.org/> + <https://jagriculture.com/> + <https://aquariumscience.org/> va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

S. parasiticaga qarshi antifungal ta'siri, ichki toksiklik tekshiruvlari natijasida baliqlar qonining gematologik va morfologik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar aniqlangan (Misr, Eron, Ispaniya tadqiqotchilar jamoalari, Tebessüm bilan Sirom, plant-extracts tadqiqotlari), baliqchilik havzasidagi kasalliklarning kechish mexanizmlarini o'rganish, malaxit ko'ki va formalin qo'llash ijobiy natija berishi asoslangan (Norvegiya Veterinariya Instituti), chuchuk suv va dengiz baliqlarida uchraydigan gematologik o'zgarishlar ularning yuqumli va parazitar kasallik qo'zg'atuvchilari bilan zararlanishiga bog'liqligi aniqlangan (Rossiya Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti va Sankt-Peterburg okeanarium instituti (Rossiya)).

Bugungi kunda dunyo bo'yicha qator, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: oziq-ovqat sanoati miqiyosidagi turli tipdagi ochiq va yopiq suv havzalarida baliqlar organizmining morfofiziologik xususiyatlariga bioekologik omillarning ta'sirini aniqlash, ilmiy asoslangan holda ishlab chiqarishni amalga oshirishga qaratilgan usullarini ishlab chiqish, chora-tadbirlarni takomillashtirish, baliqlarda uchraydigan kasalliklarni oldini olish, baliqlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va fauna xilma-xilligini asrash.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qon tananing ichki muhiti bo'lib, atrof-muhitdagi o'zgarishlarga tez va aniq javob beradi, tananing fiziologik holatini doimo va to'g'ri aks ettiradi, bu normadan og'ishlarning tabiati va jiddiyligi xorijiy olimlardan A.Thomas, L.Sigler, S.Peucker, H.Yokoyama, T.E.Boutorina, V.Carter, MDH davlatlari olimlaridan A.A.Лысенко, V.A.Христич, A.M.Музыковский, A.П.Решетников, A.A.Иванов, B.Ю.Петришка, И.Е.Быховская-Павловская, Д.М.Коротова, Л.А.Никоновalar tadqiqotlarida keltirilgan.

Hozirgi kunda qo'llanilayotgan texnologiyalardan yuqori mahsuldorlikka erishish mumkin bo'lgan, baliq o'stirilayotgan texnologiyalarning yangi intensiv darajasi kerakligi bo'yicha O'zbekiston olimlaridan E.B.Shakarboyev, V.I.Golovanov, F.E.Safarova, D.N.Kuznetsovlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Ochiq tipdagi suv havzasida kamalak rangli baliq qonida eritrotsitlar miqdorining fiziologik normasi 1,1-1,9 million birlik/mm³, leykotsitlar – 25-55 ming birlik/mm³ ekanligi keltirilgan (Тотолян (2000)). Shu boisdan, turli tipdagi suv havzalar baliqlarning qonini hozirgi holatini baholash, akvakultura tizimi uchun baliqchilik omillarining o'zaro bog'liqligini aniqlash muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida "O'zbekistonda veterinariya, biotexnologiya va chorvachilik sohasini rivojlantirish uchun ilmiy kadrlarni intensiv tayyorlash ilmiy biznes inkubatori" MEGA loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekistonning turli tipdagi suv havzalarida yashovchi baliqlar organizmining morfofiziologik xususiyatlariga bioekologik

omillarning ta'siri qonuniyatlarini hamda ularning yashovchanligi va chidamliligini ta'minlovchi adaptiv mexanizmlarni aniqlash orqali baliqlar mahsuldorligini oshirish texnologiyalarini ishlab chiqishda, baliqlar qonining gematologik va morfologik ko'rsatkichlarga bog'liqligini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turli tipdagi suv havzalarida parvarishlanayotgan baliqlar qonining gematologik ko'rsatkichlari va leykoformularini hozirgi holatini tahlil qilish;

Respublika suv havzalarida parvarishlanayotgan baliqlar qonining gematologik ko'rsatkichlari va leykoformularini sog'lom va patologik holatlarini solishtirish asosida o'rganish;

xususiylashtirilgan tarmoq sharoitida ochiq va yopiq polikulturada qo'llanilayotgan texnologiyalarni baholash hamda ushbu sharoitlarning baliqlar morfofiziologik ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish;

Respublikaning turli tipdagi suv havzalari uchun istiqbolli bo'lgan zamonaviy akvakultura tizimini hududlar kesimida to'g'ri tanlash;

akvakultura tizimi uchun baliq qoni tarkibining turli bioekologik, antropogen omillari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash;

Respublika baliqchilik suv havzalari baliq mahsuldorligini oshirishga baliqlar qoni tahlilining zamonaviy yondoshuvlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistondagi turli tipdagi suv havzalari hamda sog'lom va patologik o'zgarishlarga uchragan Karpomonlar oilasi (Cyprinidae) vakillari, kamalakrang forel (*Oncorhynchus mykiss*) baliqlari va ularning qoni olingan.

Tadqiqotning predmeti suvning sifat ko'rsatkichlari, turli ekologik guruh vakillarining miqdor va sifat tarkibi, turli baliqchilik sikllari qo'llanilganda baliqlarning o'sishi va rivojlanishi va ularning morfofiziologiyasi va gematologiyasi, baliqchilik havzasida baliqlar biomassasining o'sishi va mahsuldorligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ixtiologik, gidrobiologik, gidrologik, ekologik, qiyosiy, morfofiziologik, gematologik, statistik va laboratoriya tahlili usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat;

Respublika suv havzalarida parvarishlanayotgan baliqlar qonining gematologik ko'rsatkichlari normalari mos ravshda forel, karas, sazan baliqlarida eritrotsitlar miqdori 1,2; 1,6; 2,6; ($10^{12}/l$), gemoglobin 100,0; 89; 97; (g/l), leykotsitlar 25,5; 51,0; 43,0; ($10^9/l$), limfotsitlar esa 64,0; 76,0; 88,0% ga teng ekanligi aniqlangan;

bir yozlik (segoletka) karp baliq'ining turli parvarishlash sharoitlardagi: ekstensiv texnologiyada 86,6%; intensiv texnologiyada 64,5%; sun'iy hovuzda 91,7%; basseyn sharoitida 90,3% va yopiq suv havzasida 90,5% ni tashkil etishi qondagi limfotsitlar (%) miqdorining bir-biridan farq qilishi ilk bor isbotlangan;

xususiylashtirilgan tarmoq sharoitida ochiq va yopiq polikulturada qo'llanilayotgan texnologiyalarni baholash hamda ushbu sharoitlarning baliqlar morfofiziologik ko'rsatkichlariga ta'siri, turli tipdagi suv havzalari uchun istiqbolli bo'lgan zamonaviy akvakultura tizimini hududlar kesimida to'g'ri tanlash zarurati

asoslangan va baliqlarning o'sish va rivojlanishdagi o'rni ochib berilgan;

turli bioekologik hududlarda va hovuzlarda parvarishlangan baliqlar morfologik ko'rsatkichlari o'zgarishlari va akvakultura tizimi uchun baliq qoni tarkibining o'zgarishlari, turli bioekologik, antropogen omillarga o'zaro bog'liqligi isbotlangan;

Samarqand tumanidagi bir yillik sazan baliqlarining dum suzgich qanoti uzunligi 6,51 sm va eni 7,8 sm ni; Zomin tumanida 7,11 sm va eni 8,1 sm ni; Pastdarg'om tumanida esa 7,8 sm va eni 8,3 sm ni tashkil etib, turli ekologik hududlar kesimida suzgich qanotlarining morfologik ko'rsatkichlari o'zaro farqlanishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat;

turli tipdagi suv havzalarida parvarishlanayotgan baliqlar qonining gematologik, morfologik ko'rsatkichlari va leykoformulalarini hududlar hamda havza turlari bo'yicha bir-biridan farqlari tahlili ishlab chiqilgan;

Respublika ochiq va yopiq polikulturasida parvarishlanayotgan baliqlar qonining gematologik, morfologik ko'rsatkichlari va leykoformulalarini sog'lom va patologik holatlarini solishtirish asosida o'rganilgan hamda turli bioekologik hududlarda va hovuzlarda parvarishlangan baliqlar morfologiyasining o'zgarishlari asoslangan;

akvakultura tizimi uchun baliq qoni tarkibining turli bioekologik, antropogen omillarining o'zaro bog'liqligini aniqlash uslublari keltirilgan va baliqchilik suv havzalari baliq mahsuldorligini oshirishga baliqlar qoni tahlilining zamonaviy yondoshuvlarni ishlab chiqish asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi zamonaviy tadqiqot usullarining qo'llanilganligi, keng ko'lamda yig'ilgan materiallar asosida olingan natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, olingan ma'lumotlar zamonaviy statistik dasturlar asosida tahlil qilinganligi, olingan natijalarning etakchi nashrlarda chop etilganligi hamda amaliy natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati respublikaning turli suv havzalarida ovlanadigan baliqlar ixtiofaunasining shakllanishi asoslanganligi, karpsimon baliqlar hovuz polikultura texnologiyasini rivojlantirish yo'llarini ochib berilganligi, respublikada qafas akvakulturasini, ochiq va yopiq akvakulturasini rivojlantirishning biologik asoslarini hamda gematologik va morfofiziologik ko'rsatkichlarining baliq turi, yoshi va turli ekologik hududlar bo'ylab bir-birlaridan farqli jihatlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan hovuz polikulturasini, qafas, ochiq va yopiq akvakultura texnologiyalarini turli tipdagi suv havzalarida baliqlarning gematologik va morfofiziologik ko'rsatkichlarining o'zgarib borishi, saqlash sharoitlarining buzilishlarini yohud kasalliklarni oldindan aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonning turli tipdagi suv havzalaridagi baliqlar organizmining morfo-fiziologik xususiyatlariga bioekologik omillarning ta'siri bo'yicha olingan natijalar asosida:

Samarqand, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlari tabiiy va suniiy suv havzalarida, har xil yoshdagi oq do'ngpeshona baliq'ini karp baliq'i bilan polikulturasini leykogrammasini aniqlash hamda intensiv usulda ko'paytirish bo'yicha olingan natijalar "Do'rmonsoy" baliqchilik fermer xo'jaligiga joriy etilgan va amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 28-apreldagi 02/23-289-son ma'lumotnomasi). Natijada, karp baliqlarida gematokritning o'rtacha qiymati 30,7% ni tashkil etib, turli sharoitlarda boqilgan baliqlarni farqi mos ravishda 9,0, 5,6, 4,8, va 3,5% kamligi kuzatilib, bu ko'rsatkichlar barcha sharoitlarda nisbatan kam ekanligini aniqlanib, baliq kasalliklarini barvaqt diagnostika qilish imkonini bergan;

turli tipdagi (ekstensiv, intensiv, basseyn va yopiq suv tizimlari) akvakultura sharoitlarida boqiladigan baliqlar (karp, oq do'ngpeshona va forel) organizmining asosiy gematologik va morfofiziologik ko'rsatkichlari (gemoglobin, gematokrit, eritrotsitlar soni, leykotsitlar formulasi)ni monitoring qilish "Po'lat baliq havzasi" fermer xo'jaligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi O'zbekbaliqsanoat uyushmasining 2026-yil 23-apreldagi 09/305-son ma'lumotnomasi). Natijada, yopiq suv tizimida parvarishlangan karp baliqlarida gematokrit ko'rsatkichi o'rtacha 30,7% ni tashkil etib, boshqa texnologiyalarga nisbatan mos ravishda 3,5-9,0% ga pastligini, sun'iy hovuz sharoitida boqilgan karp baliqlarida gemoglobin miqdori o'rtacha 89,88 g/l, basseyn sharoitida esa 76,52 g/l ni tashkil etib, turli texnologik sharoitlarga bog'liq sezilarli farqlar kuzatilganligi, baliqlarni past zichlikda parvarishlashda ozuqa koeffitsienti yaxshilanib, o'sish sur'atlari va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirish imkonini bergan;

baliqlarning qon ko'rsatkichlari (gematokrit, gemoglobin miqdori, leykoformula va boshqa morfologik parametrlar) sog'lom va patologik holatlar kesimida qiyosiy tahlili Qoraqalpog'iston Respublikasi baliqchilik xo'jaliklariga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2026-yil 13-apreldagi 33/01-05-391-son ma'lumotnomasi). Natijada, gematokritning o'rtacha qiymati 30,70 ni tashkil etib, bu ko'rsatkich turli texnologik sharoitlarda (ekstensiv, intensiv, sun'iy hovuz va basseyn) mos ravishda 9,0; 5,6; 4,8 va 3,5% ga farq qilishi bilan asoslanib, ushbu tafovutlar baliqlar organizmiga tashqi muhit omillarining ta'sirini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalari chop etish tavsiya qilingan jurnallarda 11 ta maqola, jumladan 9 tasi mahalliy va 2 tasi xorijiy jurnallarda, shuningdek 1 ta o'quv qo'llanma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosalar, amaliyotga tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 191 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyot ma‘lumotlarining tahlili”** deb nomlangan birinchi bobi besh bo‘limdan iborat bo‘lib, “Suv bioresurslarini ifloslanishining baliq qoni gematologik ko‘rsatkichlariga ta‘siri” deb nomlangan birinchi bo‘limida baliqlarning morfologik ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda eritrotsitlar, leykotsitlar yadrosi hamda protoplazmasidagi regenerativ va degenerativ xarakterdagi miqdor, sifat o‘zgarishlarini, faqat ma‘lum patologik jarayonlarda aylanib yuruvchi qonda paydo bo‘ladigan hujayra shakllarini hisobga olgan holda aniqlashga oid dunyo olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan.

“Turli suv havzalarida baliq etishtirish asoslari” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili asosida akvakultura ko‘rsatkichlarini boshqarish darajasi, baliq mahsuldorligi turli suv havzalarida parvarishlanganda leykotsitlar farqi ishlab chiqilganligi, hozirda O‘zbekistonda foydalanib kelinayotgan hovuzlarda karpsimon baliqlarning polikultura tizimi yetarli darajada sharoitni boshqarishi, hovuz baliqchiligining ekstensiv va yarim intensiv texnologiyalaridan tashqari boshqa texnologiyalar va tizimlari ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida tadqiqot natijalari keltirilgan.


“Baliqlarning morfologik ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlili” deb nomlangan uchinchi bo‘limida xorij va respublikamiz olimlari tomonidan baliqlarning morfologik o‘zgarishidan ularning yoshi va o‘shini aniqlash ixtiologik tadqiqotlar, baliqlarning tangachalaridan, suyaklar va otolitlardan keng foydalanilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. “Baliqlar qonining gematologik, biokimyoviy ko‘rsatkichlari” deb nomlangan to‘rtinchi bo‘limida meditsina va veterinariya yo‘nalishida baliqlarning qon hujayralari morfologiyasi, immun tizimi, qon hosil qiluvchi hujayralar hamda gematologik ko‘rsatkichlar, baliqning fiziologik holatini baholash ularning normal va patologiyada, shuningdek, pestitsidlar va sanoat chiqindilarini saqlashda biotik buzilish holatlaridagi o‘zgarishlari keltirilgan.

“Havza muhitining gidrokimyosini o‘zgarishining baliq qoni gematologiyasiga ta‘siri” deb nomlangan beshinchi bo‘limida baliqlarga, harorat va kislorod rejimi, oziq-ovqat miqdori va sifati, ularning yashahs muhitining bir qator muhim fiziologik va biokimyoviy hamda morfofiziologik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishlari bo‘yicha tadqiqotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, obyekti va uslublari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining “O‘zbekistonda veterinariya, biotexnologiya va chorvachilik sohasini rivojlantirish uchun ilmiy kadrlarni intensiv tayyorlash ilmiy biznes inkubatori” MEGA loyihasi doirasida “Baliq” tajribaxonasida hamda “Gematologiya”, “OPTA-TECH”, laboratoriyalarida zararlangan baliqlarni umumqabul qilingan klinik, orgonaleptik, mikroskopik, morfologik, parazitologik, gematologik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda, baliqlar gematologik va morfologik qon parametrlari baliq turiga qarab o‘rganildi. Turli bioekologik zonalaridan baliqlar, ularning yoshi va xizmat ko‘rsatadigan hovuz turlari 2021-2024 yillar davomida tadqiqotlar amalga oshirilgan. Har xil turdagi suv havzalarida baliqlarning asosiy vakillari, ularning umumiy xususiyatlari, baliqlar qonini gematologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlarini aniqlash usullari keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Turli bioekologik sharoitda parvarishlangan har-xil zotdagi va yoshdagi baliqlar qonining gematologiyasi**” deb nomlangan uchinchi bobning 3.1. bandida tadqiqot olib borilgan hududlarning geografik va iqlim shroiti tavsifi keltirilgan. Ushbu bobning baliqlarni intensiv sharoitda ularni morfologik ko‘rsatkichlarini o‘zgarib borishi deb nomlangan (3.2.) ikkinchi bo‘limida, baliqxonalarda turli ozuqalar bilan intensiv sharoitda yetishtirganda karp balig‘ining o‘shishi o‘rganilganda o‘rtacha individual tana og‘irligi aniqlanib borildi va quyidagi natijalar olindi: 1-30% li proteinli yem berilgan guruhda (1-rasm).



Eslatma: “*” – $P \leq 0,05$; “***” – $P \leq 0,02$.


1-rasm. Turli ozuqalar bilan intensiv sharoitda etishtirganda karp balig‘ining o‘shish ko‘rsatgichi.

Birinchi guruhda boshlang‘ich o‘shish – 38,1; oxirgi natija – 78; o‘rtacha o‘shish esa – 39,9 grammni tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi guruhda boshlang‘ich o‘shish – 35,4; oxirgi natija – 75; o‘rtacha o‘shish esa – 39,6 grammni tashkil etdi.

2–35% li proteinli yem berilgan guruhda esa – birinchi guruhda boshlang‘ich o‘shish – 36,0; oxirgi natija – 92,9; o‘rtacha o‘shish esa – 56,9 grammni tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi guruhda boshlang‘ich o‘shish – 31,8; oxirgi natija – 85,7; o‘rtacha

o'sish esa – 52,9 grammni tashkil etdi. 3-40% li protiyinli yem berilgan guruhda esa – birinchi guruhda boshlang'ich o'sish – 34,3; oxirgi natija – 98,4; o'rtacha o'sish esa – 64,1 grammni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi guruhda boshlang'ich o'sish – 25,9; oxirgi natija – 89,8; o'rtacha o'sish esa – 63,9 grammni tashkil etdi.

Karp balig'ini baliqxonada intensiv sharoitda yetishtirganda karp balig'ining umumiy biomassasi o'rganlganda o'rtacha qafasdagi baliqlar umumiy biomassasi aniqlanib borildi va quyidagi natijalar olindi. 1 va 2 chi 1m³/10 dona saqlangandagi guruhda – birinchi guruhda boshlang'ich o'sish – 960 gramm; oxirgi natija – 1 kg 947 gramm; o'rtacha o'sish – 987 grammni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi guruhda boshlang'ich o'sish – 1 kg 60 gramm; oxirgi natija – 1 kg 860 gramm; o'rtacha o'sish – 800 grammni tashkil etib o'rtacha og'ish 3,1-2,3 ni tashkil qildi. 3 va 4 chi 1m³/50 dona saqlangandagi guruhda: esa – birinchi guruhda boshlang'ich o'sish – 5 kg 200 gramm; oxirgi natija – 10 kg 890 gramm; o'rtacha o'sish – 5 kg 690 grammni, ikkinchi guruhda boshlang'ich o'sish – 5 kg 60 gramm; oxirgi natija – 10360 gramm; o'rtacha o'sish – 5300 grammni tashkil etib o'rtacha og'ish 2,9-3,5 ni tashkil qildi (2-rasm).



Eslatma: “*” – $P \leq 0,05$; “***” – $P \leq 0,02$.

2-rasm. Karp balig'ini yarim intensiv sharoitda morfologik ko'rsatkichlarini o'zgarishi.


5 va 6 chi 1m³/10 dona saqlangandagi guruhda: esa – Boshlang'ich o'sish – 7 kg 820 gramm; oxirgi natija – 16 kg 790 gramm; o'rtacha o'sish – 8 kg 970 grammni, ikkinchi guruhda boshlang'ich o'sish – 9 kg 880 gramm; oxirgi natija – 18 kg 680 gramm; o'rtacha o'sish – 8 kg 800 grammni tashkil etib o'rtacha og'ish 3,7-3,1 ni tashkil qildi. Oq amur baliqchilik xo'jaligida o'stirilgan bir yozlik (segoletka) karp balig'ining gematologik ko'rsatkichlari deb nomlangan 3.3. bo'limida Karp balig'ini gematologik ko'rsatkichlari tekshirilganda (hovuz) Ekstensiv texnologiya asosida parvarishlanayotgan baliqlarning gemoglobini o'rtacha arifmetik qiymati 85,6 gramm litrni tashkil etdi. Intensiv texnologiyada boqilgan karp baliqlarini bir muncha farq qilib, ekstensiv texnologiya asosida

parvarishlanayotgan baliqlarning gemoglobiniga nisbatan 7,02 ($77,48 \pm 3,5$) g/l ga kam ekanligi aniqlanib, standart og'ish esa 0,481 ni tashkil etdi.

Sun'iy hovuz sharoitida boqilgan karp baliqlarda gemoglobinning o'rtacha arifmetik qiymati 89,88 g/l ni, standart og'ish esa 4,035 ni tashkil etib, ekstensiv va intensiv texnologiyalarga nisbatan mos ravshda 3,28 va 12,42 g/l ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Basseyn sharoitida boqilgan karp baliqlarda gemoglobinning o'rtacha arifmetik qiymati 76,52 g/l ni, standart og'ish esa 2,98 ni, ekstensiv texnologiya boqilgan karp baliqlaridan, intensiv texnologiya, sun'iy hovuz sharoitlarida boqilgan baliqlardan farqi mos ravshda 9,08; 0,96; 13,35 g/l ga kam ekanligi aniqlandi.

Yopiq suv havzasi sharoitida boqilgan karp baliqlarida esa gemoglobinning o'rtacha arifmetik qiymati 60,56 gramm litrni, standart og'ish esa 4,32 ni tashkil etib, ekstensiv va intensiv texnologiya, sun'iy hovuz, basseyn sharoitlarida boqilgan baliqlardan gemoglobinning farqi mos ravshda 25,02; 17,08; 29,24; 15,96 g/l ga kam ekanligi hamda barcha baliq boqish sharoitlariga nisbatin eng past ko'rsatkichga ega bo'ldi (3-rasm).



Eslatma: “*” – $P \leq 0,05$; “**” – $P \leq 0,02$.


3-rasm. Oq amur baliqchilik xo'jaligida o'stirilgan bir yozlik (segoletka) 120 kunlik karp balig'ining gemoglobin ko'rsatkichlari.

Ekstensiv (hovuz) texnologiya asosida parvarishlanayotgan karp baliqlarining eritrotsitini o'rtacha arifmetik qiymati $1,5 \cdot 10^{12}/l$ ni tashkil etdi.

Intensiv texnologiyada boqilgan karp baliqlari, Ekstensiv texnologiya asosida parvarishlanayotgan baliqlarning Eritrotsitiga nisbatan bir muncha farq qilib $0,18 (1,32 \pm 0,4) \cdot 10^{12}/l$ kam ekanligi tekshirishlarda aniqlandi. Ekstensiv texnologiyada parvarishlangan baliqlar, intensiv texnologiyalarda parvarishlangan baliqlarga nisbatan eritrotsitlar miqdori mos ravshda 0,4 va $0,22 \cdot 10^{12}/l$ kamyib borishi kuzatildi.

Basseyin sharoitida boqilgan karp baliqlarda eritrotsitning o'rtacha arifmetik qiymati $1,3 \cdot 10^{12}/\text{litr}$ ni tashkil etib, ekstensiv texnologiya boqilgan karp baliqlaridan, intensiv texnologiya sharoitlarida boqilgan baliqlardan farqi mos ravshda 0,2; $0,02 \cdot 10^{12}/\text{l}$ ga kam ekanligi va sun'iy hovuz sharoitlarida boqilgan baliqlardan $0,2 \cdot 10^{12}/\text{l}$ ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Yopiq suv havzasi sharoitida boqilgan karp baliqlarida esa Gemotokritning o'rtacha arifmetik qiymati 30,7% ni tashkil etib, Ekstensiv texnologiya, Intensiv texnologiya, Sun'iy hovuz, Basseyin sharoitlarida boqilgan baliqlardan Gemotokritning farqi mos ravshda 9,0; 5,6; 4,8; 3,5% ga kam ekanligi tajribalarda aniqlanib bu ko'rsatkich barcha baliq boqish sharoitlariga nisbatin eng past ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlanib ushbu ko'rsatkich gemogloblin va Eritrotsitning statistikasi kabi barcha baliq boqish sharoitlariga nisbatin eng past ko'rsatkichga ega bo'ldi (4-rasm).



Eslatma: “” – $P \leq 0,02$; “**” – $P \leq 0,01$.*

4-rasm. Oq Amur baliqchilik xo'jaliklarida o'stirilgan bir yozlik karp balig'ining eritrositdagi gemoglobin miqdori, pg. ko'rsatkichlari.

Tajribalarimizdagi ekstensiv texnologiya asosida parvarishlanayotgan karp balig'ini eritrotsitdagi gemoglobin miqdori (Sali gemometri) ko'rsatkichlari (hovuz) o'rtacha arifmetik qiymati 56,6 pg ni, standart og'ish esa 2,7 ni tashkil etdi.

Intensiv texnologiyada boqilgan karp baliqlarini bir muncha farq qilib ekstensiv texnologiya asosida parvarishlanayotgan baliqlarning eritrotsitdagi gemoglobin miqdoriga nisbatan $10,26 (46,34 \pm 1,85)$ pg ga kam ekanligi aniqlanib, standart og'ish esa 1,85 ni tashkil etdi.

Sun'iy hovuz sharoitida boqilgan karp baliqlarda eritrotsitdagi gemoglobin miqdorining o'rtacha arifmetik qiymati 81,5 pg tashkil etib, ekstensiv va intensiv texnologiyalarga nisbatan mos ravshda 24,9 va 35,16 pg ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Basseyin sharoitida boqilgan karp baliqlarda eritrotsitdagi gemoglobin miqdorning o'rtacha arifmetik qiymati 58,0 pg ni, ekstensiv texnologiyada

boqilgan karp baliqlaridan, intensiv texnologiya sharoitlarida boqilgan baliqlardan farqi mos ravshda 2,6; 12,34 pg ga kam ekanligi aniqlanib, sun'iy hovuz sharoitida parvarishlangan baliqlar eritrotsitdagi gemoglobin miqdoriga nisbatan 23,5 pg gak kam ekanligi aniqlandi.

Yopiq suv havzasi sharoitida boqilgan karp baliqlarida esa eritrotsitdagi gemoglobin miqdorining o'rtacha arifmetik qiymati 59,5 pg ni tashkil etib, ekstensiv va intensiv texnologiya, basseyn sharoitlarida boqilgan baliqlardan eritrotsitdagi gemoglobin miqdorining farqi mos ravshda 3,1; 13,16; 1,5 pg ga yuqori ekanligi tajribalarda aniqlanib bu ko'rsatkich sun'iy hovuz sharoitlarida boqilgan baliqlardan eritrotsitdagi gemoglobin miqdori 22,0 pg ga kam ekanligi aniqlandi.

2024-2025 yillar Oq amur baliqchilik xo'jaligidagida ekstensiv texnologiya asosida parvarishlanayotgan baliqlarning eritrotsitni o'rtacha arifmetik qiymati 267,7 mkm ni standart og'ish esa o'rtacha 9,6 ni tashkil etdi.

Intensiv texnologiyada boqilgan karp baliqlarini eritrotsitni o'rtacha hajmi o'lchami 321,5 mkm, standart og'ish esa 2,8 ni tashkil etdi.

Sun'iy hovuz sharoitida boqilgan karp baliqlarda eritrotsitni o'rtacha hajmining o'rtacha arifmetik qiymati 245 mkm ni tashkil etib, basseyn sharoitida boqilgan karp baliqlarda eritrotsitni o'rtacha hajmi o'rtacha arifmetik qiymati 349,65 mkm ni tashkil etdi.

Intensiv texnologiya va basseyn sharoitlarida boqilgan baliqlardan eritrotsitni o'rtacha hajmining farqi mos ravshda 19,2; 47,35 mkm ekanligi tajribalarda aniqlanib, ushbu ko'rsatkich ekstensiv texnologiya va sun'iy hovuz sharoitlarida boqilgan baliqlarda esa mos ravshda 34,6; 57,3 mkm ga kamayib borishi kuzatildi.

Tajribamizdagi chipor do'ngpeshona (*Pyostriy tolstolobik*) balig'ini karp bilan polikulturasini eritrotsitlarni o'rtacha hajmi (hovuz) bir yozlik baliqlarning eritrotsitlarni o'rtacha arifmetik qiymati 201,4 mkm ni, standart og'ish esa 12,92 ni tashkil etdi.

Bir qishlik chipor do'ngpeshona baliqlarini eritrotsitlarni o'rtacha hajmining o'rtacha arifmetik qiymati 237,08 mkmni tashkil etdi. Chipor do'ngpeshona baliqlarini eritrotsitlarni o'rtacha hajmining o'rtacha arifmetik qiymati bir yozlik baliqlarga nisbatan 35,68 mkm ga yuori ekanligi kuzatildi.

Sun'iy hovuz sharoitida boqilgan bir yillik chipor do'ngpeshona baliqlarda eritrotsitlarni o'rtacha hajmining arifmetik qiymati 189,6 mkmni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich bir yozlik va qishlik baliqlarga nisbatan mos ravshda 11,8; 47,48 mkmga kamayganligi aniqlandi.

Hovuz sharoitida boqilgan ikki yillik chipor do'ngpeshona baliqlarda eritrotsitlarni o'rtacha hajmining o'rtacha arifmetik qiymati 241,11 mkmni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich bir qishlik baliqlarga nisbatan 4,03 mkmga, bir yozlik va bir yillik chipor do'ngpeshona baliqlar eritrotsitlarni o'rtacha hajmining arifmetik qiymatiga nisbatan mos ravshda 39,71; 51,51 mkmga yuqori ekanligi kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich bir qishlik baliqlarga nisbatan 3,7 pg ga kamligi, bir yozlik va bir yillik chipor do'ngpeshona baliqlar eritrotsit tarkibidagi gemoglobininig o'rtacha arifmetik qiymatiga nisbatan mos ravshda 10,1; 6,02 pg ga yuqori ekanligi

kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich bir qishlik baliqlarga nisbatan $29,0 \times 10^{12}$ /litrga, bir yozlik va bir yillik chipor do'ngpeshona baliqlar Leykotsitining o'rtacha arifmetik qiymatiga nisbatan mos ravshda 14,3; $5,59 \times 10^{12}$ /litrga yuqori ekanligi tajribalarda kuzatildi (1-jadval).

1-jadval

Hovuz sharoitida boqilgan chipor do'ngpeshona (pyostriy tolstolobik) balig'ini karp bilan polikulturasini gematologik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	Bir yozlik	Bir qishlik	Bir yillik	Ikki yillik
Gemoglobin, g/l	75,9±2,2	95,9±2,8	63,8±3,8	86,7±2,3
Gemotokrit, %	37,21±0,2	41,67±2,6	29,6±1,2	40,11±1,6
Eritrotsit, 10^{12} /l	1,81±0,05	1,81±0,07	1,5±0,2	1,69±0,08
Eritrotsitlarni o'rtacha hajmi, mkm	201,4±12,9	237,08±28,5	189,6±8,1	241,11±14,1
Eritrotsit tarkibidagi gemoglobin, pg	41,5±3,4	55,1±3,9	45,38±1,5	51,4±3,3
Leykotsit $\times 10^{12}$ /l	25,8±4,7	11,1±1,8	34,51±2,7	40,1±3,6

Eslatma: “*” – $P \leq 0,05$; “***” – $P \leq 0,02$.

Tadqiqotlarimiz “Do'rmonsoy baliqlari” baliqchilik xo'jaligidagi har xil yoshdagi chipor do'ngpeshona balig'ini karp bilan polikulturasini leykogrammasini aniqlashda to'rt guruhga ya'ni: bir yozlik, bir qishlik, bir yillik va ikki yillik yoshlarida o'rganildi.

Ikki yillik chipor do'ngpeshona baliqlarda metamielotsit neytrofilning o'rtacha arifmetik qiymati 3,0% ni tashkil etib, bir yozlik chipor do'ngpeshona baliqlariga nisbatan 1,8% ga ko'p ekanligi aniqlangan bo'lsa, bir qishlik va bir yillik oq do'ngpeshona baliqlariga nisbatan metamielotsit neytrofilning farqi mos ravshda 20,1; 15,1% ga ikki yillik chipor do'ngpeshona baliqlariga nisbatan kam ekanligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Hovuz sharoitida boqilgan chipor do'ngpeshona (pyostriy tolstolobik) balig'ini karp bilan polikulturasini leykogrammasi.

Ko'rsatkichlar	Bir yozlik	Bir qishlik	Bir yillik	Ikki yillik
Leykogramma, %				
Impiral shakli	0	0,1±0,11	0	0
Promielotsit	0,58±0,1	0,65±0,2	0,1±0,12	0
Mielotsit neytrofil	0,38±0,1	2,4±0,2	1,2±0,3	0
Metamielotsit neytrofil	1,2±0,3	23,1±2,5	18,1±2,4	3,0±0,4
Tayoqchayadroli neytrofil	0,2±0,1	7,7±1,0	8,8±1,1	0,48±0,1
Segmentoyadroli neytrofil	0	2,6±0,6	2,2±0,5	0
Eozinofil	1,12±0,3	0,1	0	0
Psevdoeozinofil	8,4±1,1	1,3±0,3	0,1±0,3	6,7±0,6
Bazofil, psevdobazofil	0,35±0,1	0	0	0
Ko'piksmon hujayra	0	0	0,1	0,5±0,1
Monotsit	0,2±0,1	1,3±0,2	0,4±0,1	0
